Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	



O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI



Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasida mustaqil izlanuvchi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning norasmiy bandlik sektorida mehnat qilayotgan shaxslarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq mavjud muammolar, ularni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar hamda xorij tajribasi asosida ishlab chiqilgan takliflar o'rganiladi. Tadqiqot davomida statistik tahlil, taqqoslash, huquqiy normalarni solishtirish va tizimli yondashuv metodologiyalari qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, norasmiy sektor ulushi yuqori bo'lgan sharoitda pensiya jamg'armasi barqarorligiga bosim kuchayadi, pensiya oluvchilar soni ortadi, biroq jamg'armaga tushumlar kamayadi. Shu sababli ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rag'batlantirish, soliqqa tortish mexanizmlarini yumshatish, korporativ pensiya dasturlarini joriy etish hamda mehnat munosabatlarini raqamlashtirish zarur.

Kalit so'zlar: norasmiy sektor, pensiya tizimi, pensiya jamg'armasi, ixtiyoriy pensiya jamg'arish, bandlik, korporativ pensiya dasturlari, raqamlashtirish.

Abstract. This article examines the current problems related to pension provision for people working in the informal sector of employment in Uzbekistan, the reforms implemented to solve them, and proposals based on foreign experience. The research used statistical analysis, comparison, comparison of legal norms, and a systematic approach. The results showed that in conditions with a high share of the informal sector, pressure on the stability of the pension fund increases, the number of pensioners increases, but the income to the fund decreases. Therefore, it is necessary to stimulate the voluntary funded pension system, soften taxation mechanisms, introduce corporate pension programs, and digitize labor relations.

Key words: informal sector, pension system, pension fund, voluntary pension fund, employment, corporate pension programs, digitalization.

Аннотация. В данной статье изучаются существующие проблемы пенсионного обеспечения лиц, работающих в неформальном секторе занятости в Узбекистане, проведённые реформы по их решению, а также предложения, основанные на зарубежном опыте. В процессе исследования были применены методы статистического анализа, сравнения, сопоставления правовых норм и системного подхода. Результаты показали, что при высокой доле неформального сектора усиливается давление на устойчивость Пенсионного фонда: число получателей пенсий растёт, однако поступления в фонд сокращаются. В связи с этим необходимо стимулировать систему добровольных накопительных пенсий, смягчить механизмы налогообложения, внедрить корпоративные пенсионные программы и цифровизировать трудовые отношения.

Ключевые слова: неформальный сектор, пенсионная система, пенсионный фонд, добровольные пенсионные накопления, занятость, корпоративные пенсионные программы, цифровизация.



KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi pensiya tizimi barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mehnatga layoqatli aholining muhim qismi norasmiy sektorda faoliyat yuritadi, bu esa pensiya jamg'armasiga ajratmalar hajmining kamayishiga va kelajakdagi pensiya ta'minotining xavf ostida qolishiga olib keladi. Norasmiy sektor ishchilari kelajakda ijtimoiy himoyasiz qatlamga aylanish xavfi mavjud. Shu sababli norasmiy bandlikni kamaytirish va pensiya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. Tadqiqot obyekti O'zbekistonning norasmiy bandlik sektori, tadqiqot predmetini esa norasmiy sektor ishchilarining pensiya ta'minoti mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi norasmiy bandlik sharoitida pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashning samarali yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida O'zbekistonda norasmiy bandlik holatini tahlil qilish, pensiya tizimi bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash, xorijiy tajribani o'rganish va qiyosiy baholash, pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy bandlik va pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamli izlanishlar amalga oshirilgan. Holzmam va Hinz tomonidan 2005-yilda pensiya tizimining global modellarini tahlil etishda aholi demografik tuzilmasi, iqtisodiy faollik darajasi va moliyaviy barqarorlik omillarining asosiy o'rin tutishi ta'kidlangan[1]. Qozog'iston tajribasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish pensiya fondlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan, Shvetsiyada esa aralash model asosida davlat va xususiy jamg'armalar integratsiyasi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston sharoitida norasmiy sektor ishchilarining pensiya ta'minoti masalalari xalqaro mehnat bozori nazariyalari va ijtimoiy himoya modellariga asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Ushbu yo'nalishda Robert Holzmam va Richard Hinz tomonidan ishlab chiqilgan "Old-age income support" modeli norasmiy bandlik keng tarqalgan iqtisodiyotlarda uch darajali pensiya tizimining samaradorligini asoslab beradi. Ularning tadqiqotlari pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi, majburiy badallarni yig'ish imkoniyati va norasmiy ishchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi.

ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) ekspertlari, xususan Madhur Gautam va David Robalino tomonidan olib borilgan ishlarda norasmiy bandlik ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda pensiya yotqizmalari barqaror emasligi, badal to'lash intizomi pastligi va tizimning ma'muriy xarajatlari yuqoriligi ta'kidlanadi. Ularning tadqiqotlari O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, norasmiy sektor ishchilarining daromadlari notekisligi sababli ixtiyoriy pensiya badallari institutini rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Jonathan Gruber va David Wise tomonidan olib borilgan pensiya tizimining ishtirok motivatsiyasi haqidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, norasmiy sektorda ishlovchilar uchun pensiya badali to'lashning foydasi qisqa muddatda sezilmaydi. Shu sababli, davlat tomonidan soliq imtiyozlari, daromadni aniqlashtirish va mikrojamg'arma mexanizmlari orqali rag'batlantirish zarur. Bu xulosa O'zbekistonda "Mehnatga haq to'lashni raqamlashtirish" va "Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan ijtimoiy soliq" kabi islohotlarning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Nora Lustig tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosat va kambag'allik modellashtirishga oid tadqiqotlarda norasmiy sektor aholisi orasida pensiya qamrovi pastligi ularning daromad o'zgaruvchanligi bilan bog'liqligi isbotlangan. Lustigning Lotin Amerikasi bo'yicha tahlillari shuni ko'rsatadiki, norasmiy ishchilarga mo'ljallangan mobil ilovalar, kichik badallar asosidagi jamg'arma tizimlari va davlat subsidiyalari tizimning umumiy qamrovini oshiradi.

Dunya Bankidagi William Price va Mark Dorfman tomonidan ishlab chiqilgan pensiya tizimi diagnostikasi metodikasi esa O'zbekistonda pensiya tizimi istiqbollari uchun amaliy ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida norasmiy bandlik 50 foizdan yuqori bo'lgan davlatlarda davlat pensiyasiga tayanish xavfli ekani, jamg'armaviy tizimlar esa ancha samarali bo'lishi mumkinligi qayd etiladi. Bu O'zbekistonda ham ko'p pog'onali pensiya tizimini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Ruslan Yemtsov va Cem Mete tomonidan Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda ijtimoiy himoya tizimining qamroviga bag'ishlangan tadqiqotlar O'zbekiston kontekstida muhim bo'lib, ular norasmiy sektorda ishlovchilarning "ikkilamchi himoya zonasida" qolib ketishini ko'rsatadi. Tadqiqotlar davlat pensiyasiga ishonch pastligi va norasmiy daromadni rasmiylashtirishga bo'lgan motivatsiya yetishmasligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy sektorda band aholini pensiya ta'minoti tizimiga jalb etish bo'yicha qo'llanilgan asosiy chora-tadbirlar solishtirildi. Statistik tahlil davomida




Statistika agentligi va Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida norasmiy bandlik ulushi va pensiya oluvchilar soni o'rganildi. Kontent-tahlil usuli orqali tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning pensiya qamrovi cheklangan bo'lib, norasmiy sektor ishchilari (ayniqsa qishloq xo'jaligi, mikrobiznes va o'z-o'zini band qiluvchilar) ko'pincha pensiya tizimidan chetda qoladi. Mamlakat so'nggi yillarda ro'yxatga olishni soddalashtirish, ijtimoiy xarajatlarni oshirish va pensiyalarni ko'tarish kabi choralarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda, biroq Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon Banki tahlillari norasmiy ishchilarni qamrab olish uchun qo'shimcha mexanizmlar va rag'batlar zarurligini ko'rsatadi[2].

O'zbekistonda norasmiy sektor ishchilarining hozirgi holati ILO tahlil natijalariga ko'ra, ishlovchilarning katta qismi (qishloq xo'jaligi bo'lmagan sektorda 38,4 foiz atrofida) norasmiy sektorda faoliyat yuritadi, qishloq xo'jaligida esa bu ulush ancha yuqori[3]. Bu holat pensiya qamrovining pasayishiga va pensiya jamg'armasiga badallar bazasining torayishiga olib keladi. Analitik tadqiqotlarda rasmiylashtirishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida past darajada soliqlarni to'lash istagi, ma'lumot yetishmasligi va savodsizlik, kichik biznes hamda oilaviy korxonalarning murakkab huquqiy talablaridan cho'chishi qayd etiladi[4]. Norasmiy ishchilar tizimga to'lov qilmagani sababli pensiya jamg'armalariga tushum kamayadi va budget orqali kompensatsiya qilish zaruriyati ortadi.

Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil natijalariga ko'ra Respublikada pensiya va nafaqalarni qabul qiluvchilarning umumiy soni 4 827,3 ming kishini tashkil etgan va 2019-yilga nisbatan 948,9 ming kishi, ya'ni 24,5 foizga oshgan (1-rasm) [5].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchilar soni (2023-yil oxirida, ming kishi)

O'zbekistonda pensiya ta'minoti borasida mavjud mexanizmlar rasmiy ishchilar uchun majburiy pensiya badallari, o'zini o'zi band qilgan aholi uchun esa ixtiyoriy ishtirok (staj yig'ish uchun bir yilda bir marta amalga oshiriladigan ijtimoiy soliq — hozirgi kunda 412 ming so'm) kabi oddiylashtirilgan rejimlarni taklif qiladi. Shuningdek, 2023-yilda joriy qilingan chora-tadbirlar doirasida budget yordamiga asoslangan minimal ijtimoiy pensiyalar va ijtimoiy yordamlar amal qilmoqda[6]. So'nggi davrda kichik tadbirkorlar va o'zini o'zi band qiluvchilar uchun ro'yxatdan o'tish jarayonini yengillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda (ayrim chora-tadbirlar 2023–2024-yillarga to'g'ri keladi). Biroq norasmiy ishchilarni to'liq qamrab olish uchun qo'shimcha mexanizmlar zarur.

Xorijiy tajribada norasmiy bandlik muammosi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, turli davlatlar uni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib hal etishga harakat qilgan. Xususan, quyidagi jadvalda ayrim misollar keltiriladi (1-jadval):



1-jadval. Rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy bandlikni rasmiylashtirish chora-tadbirlari

Davlat	Chora-tadbirlar
Meksika	-ijtimoiy ta'minot dasturlari: sog'liqni saqlash va pensiya jamg'armalaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadigan o'z-o'zini ish bilan ta'minlash dasturi orqali. -raqamlashtirish va onlayn-platformalar: kichik tadbirkorlar va ishchilarga qonuniy ravishda biznes yuritish va internet orqali soliq to'lashga imkon beradigan raqamli platformalarni faol rivojlantirish orqali; - ta'lim tashabbuslari: Davlat va xususiy o'quv dasturlari norasmiy ish bilan band odamlarga mehnat bozoriga kirish va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash uchun ro'yxatdan o'tishga imkon beradigan ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.
Indoneziya	-Soliq solishning soddalashtirilgan sxemalari: Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini joriy etish. -Moliyaviy inkluziya dasturlari: norasmiy ish bilan bandlar uchun mikromoliyalashtirish va mobil ilovalar orqali oddiy ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratildi. Qamrov 2014-yildagi 15 mln ishtirokchidan 2023-yilda 40 mln nafarga yetdi[7]. -Ta'lim va axborot kampaniyalari: Norasmiy ish bilan ta'minlangan ishchilar orasida biznesni legallashtirish imkoniyatlari to'g'risida xabardorlikni oshirish va huquqiy xabardorlikni oshirish uchun turli xil ta'lim dasturlari o'tkazilmoqda.
Malayziya	-Inkluziv ish dasturlari: Kichik va o'rta biznes uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali tadbirkorlik va ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish uchun dasturlar ishlab chiqilgan. -Ijtimoiy ta'minot va pensiya dasturlari: Kichik biznes va yakka tartibdagi ishchilar uchun Ijtimoiy xavfsizlik dasturi kabi tashabbuslar ularga sog'liqni saqlash va pensiya huquqlarini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. -Raqamli biznesni ro'yxatga olish platformasi: kichik va o'rta korxonalarga onlayn xizmatlar orqali ro'yxatdan o'tish va soliq to'lashga yordam berish.
Polsha	-Kichik biznes uchun soliq imtiyozlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik korxonalar uchun soliq imtiyozlari orqali rasmiy ro'yxatdan o'tkazishni osonlashtirish; -O'z-o'zini band qilganlar uchun dasturlar: pensiya va tibbiy sug'urtaga kirishga imkon; -Byurokratik jarayonlarni soddalashtirish: Biznesni ro'yxatdan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibi, shu jumladan soliqlarni ro'yxatga olish va to'lash uchun elektron platformalar joriy etildi. -Startaplar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: grantlar, o'qitish va tadbirkorlar uchun ekotizimni yaratish orqali startaplarni qo'llab-quvvatlashni faol rivojlantirmoqda.
Uganda	-mobil pul o'tkazmalari orqali past daromadli norasmiy sektor ishchilari uchun mo'ljallangan mikropensiya dasturini ishga tushirib ixtiyoriy asosda istalgan miqdor va istalgan vaqt ichida badallar (yoki bank omonatlari ko'rinishida)ni to'lab borish imkoniyatini yaratdi. Bu reja doimiy asosda belgilangan badallarni to'lay olmaydiganlarga mo'ljallanib, ishchilar jamg'armalarini bir yildan so'ng hisoblaridan yecha olish imkoniyatiga ega bo'ladi[8].

Ushbu mamlakatlarning har biri norasmiy bandlik bilan bog'liq o'ziga xos muammolarga duch kelayotgan bo'lsa-da, ular norasmiy ish bilan ta'minlangan aholining rasmiy sektorga kirish jarayonini yengillashtirish uchun soliq imtiyozlari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari, raqamlashtirish yechimlari va ta'lim tashabbuslari kabi o'xshash choralarni ishlab chiqmoqda. Norasmiy bandlikni kamaytirish jarayonida mobil texnologiyalar va soliq rag'batlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, norasmiy sektorda asosan nostandart ishchilar band bo'lib, ular past va beqaror daromadlari sababli pensiya badallarini to'lashga ustuvor ahamiyat bermaydilar. Shu bois pensiya uchun tejash jarayonini rag'batlantirishda nostandart ishchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Xorij tajribasidan kelib chiqib, qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar rejasini taklif etish mumkin.

Qisqa muddatli bosqichda (1–2 yil) qamrovni tez oshirishga qaratilgan yondashuv muhim bo'lib, bu jarayonda soddalashtirilgan ixtiyoriy jamg'arma tizimi (micro-pension)ni joriy etish, ya'ni mobil to'lovlar orqali arzon va moslashuvchan pensiya hisobvaraqlarini ochish samarali natija beradi. Bu tajriba Hindiston, Indoneziya va bir qator Afrika davlatlarida o'zini oqlagan. Shu bilan birga, keng ko'lamli ma'lumot va targ'ibot kampaniyalarini yo'lga qo'yish, dastlabki bosqichlarda bir martalik davlat rag'batlarini, jumladan, matching yoki soliq imtiyozlarini taqdim etish kutilgan natijani beradi, chunki OECD va World Bank tomonidan aynan shunday mexanizmlar tavsiya etilgan. Raqamli registrarlar va ID tizimlari bilan bog'langan pensiya hisobvaraqlarini yaratish esa ishtirokchilarni ro'yxatga olishni soddalashtiradi, mobil to'lovlar bilan integratsiyani ta'minlaydi hamda ayrim Afrika davlatlarida kuzatilganidek, qamrov darajasini sezilarli oshiradi.

O'rta muddatli bosqichda (3–5 yil) tizimni institutsional jihatdan mustahkamlash birlamchi vazifa hisoblanadi. Bu bosqichda o'z-o'zini band qiluvchilar uchun majburiy minimal to'lov tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali qatnashuv darajasini oshirish va budjetdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini uyg'unlashtirish mumkin. Migrant ishchilar va mikrobiznes sektori uchun muhim bo'lgan portable va modul pensiya hisobvaraqlarini



shakllantirish orqali ishchi faoliyati o'zgarib turgan sharoitda ham jamg'arma tizimidagi uzluksizlik ta'minlanadi, bu mexanizm OECD hujjatlarida afzal yo'l sifatida qayd etilgan. Soliq, sug'urta, pensiya va ijtimoiy yordam ma'lumotlarini integratsiyalash esa pensiya tizimidan chetda qolayotgan ishchilarni aniqlash, ularni tizimga jalb etish va maqsadli siyosat yuritish imkonini kengaytiradi.

Uzoq muddatli istiqbolda (5–15 yil) tizimning barqarorligi va moliyaviy mustahkamligini ta'minlash ustuvor masala hisoblanadi. Bu bosqichda davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya va shaxsiy jamg'armaga asoslangan aralash modelni rivojlantirish, Shvetsiya yoki Qozog'iston tajribasida kuzatilganidek, budjet yukini kamaytirish va investitsion resurslarni kengaytirishga xizmat qiladi. Ishchilarni avtomatik ro'yxatga olish (auto-enrolment) tizimlarini joriy etish esa ixtiyoriy ishtirokni sezilarli darajada oshiradi, bu jarayon Buyuk Britaniya va bir qator Yevropa davlatlarida yuqori qamrovga erishishda muhim omil bo'lgan. Pensiya jamg'armalarini mustaqil va shaffof boshqarish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish hamda muntazam ochiq hisobotlarni yo'lga qo'yish esa uzoq muddatli daromadlilikni oshirish va ishonchni mustahkamlash uchun zarur institutsional shart-sharoitni yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida norasmiy bandlik sharoitida pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator yo'nalishlar belgilandi. Maqsadli hududlarda pilot dasturlar orqali norasmiy bandlar uchun mikropensiya rejalarini joriy etish, ularning natijalarini tizimli monitoring qilish va baholash zarur. Ixtiyoriy pensiya jamg'armalariga davlat subsidiyasini tatbiq etish, kichik biznes va tashkilotlarda korporativ pensiya dasturlarini qo'llab-quvvatlash ham pensiya qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi. Mehnat munosabatlarini to'liq raqamlashtirish yashirin bandlikni sezilarli darajada qisqartiradi, aholining pensiya tizimiga ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, pensiya savodxonligini kuchaytirishga qaratilgan moliyaviy o'qitish dasturlarini kengaytirish aholining ijtimoiy himoya tizimiga ongli ravishda qo'shilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Holzmann R., Hinz R. Old Age Income Support in the 21st Century. World Bank, 2005.
2. An assessment of the social protection system in Uzbekistan Based on the Core Diagnostic instrument (CODI). A joint report by ILO, UNICEF, and the World Bank. . Moscow, Russia: International Labour Organization, 2020. P.131.
3. ILO report. Decent Work Country Programme for the Republic of Uzbekistan 2021-25. <https://www.ilo.org/sites/default/files/2004/DWCP%20Uzbekistan.pdf>
4. Analysis of the state system in Uzbekistan to promote an integrated approach in employment and welfare services delivery for persons with disabilities. UNDP, National Agency for Social Protection of Uzbekistan, European Centre for Social Welfare Policy and Research, Authors: Anette Scoppetta and Eszter Zólyomi, 2024
5. Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan. National statistics committee of the republic of Uzbekistan. <https://stat.uz/en/official-statistics/social-protection>
6. Указ Президента Республики Узбекистан, от 02.06.2025 г. № УП-91. О повышении размеров заработной платы, пенсий, стипендий и пособий. <https://lex.uz/ru/docs/7553336>
7. BPJS Ketenagakerjaan. (2023). Annual Report 2022. Jakarta: BPJS Press. pp. 12–35.
8. Melis Guven. Extending Pension Coverage to the Informal Sector in Africa. World Bank. Discussion paper No. 1933 | JULY 2019. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/153021563855893271/pdf/Extending-Pension-Coverage-to-the-Informal-Sector-in-Africa.pdf>
9. Alexandre Kolev, Justina La and Thomas Manfredi. Extending social protection to informal economy workers: Lessons from the Key Indicators of Informality based on Individuals and their Household (KIIBIH). OECD Development Centre Working Papers No. 350. OECD 2023 https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/11/extending-social-protection-to-informal-economy-workers_883d837f/ca19539d-en.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
